O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

Jismoniy madaniyat va sportni o’qitish metodikasi kafedrasi

# «TURIZM VA UNI O’QITISH USLUBIYATI» FANI BO’YICHA

## Ma’ruzalar matni

Bakalavriat yo’nalishi «5112000»
jismoniy madaniyat

Tuzuvchi: o’qit. I.R.Turaqulov

Samarqand – 2012 yil

# K I R I S H

Turizm va uni o’qitish metodikasi fanidan ta’lim tyexnologiyasining kontsyeptual asoslari.

Talabalarga bilim byerishda zamonaviy ta’lim tyexnologiyalarining ahamiyati to`g’risida so`z borganda Pryezidyentimiz I.A.Karimovning “O`quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko`rsatadigan o`qituvchi va domlalarga e’tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko`tarish diqqatimiz markazida bo`lishi darkor” dyegan so`zlarini ta’kidlash o`rinlidir. Bu masala “Barkamol avlod yili” Davlat dasturida ham asosiy yo`nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Majmuada kyeltirilgan ta’lim tyexnologiyalarining har biri o`zida o`quv mashg’ulotini o`tkazish shart-sharoiti to`g’risida axborot matyeriallarini, pyedagogik maqsad, vazifa va ko`zlangan natijalarni, o`quv mashg’ulotning ryejasi, o`qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdyek, bu o`quv mashg’ulotining tyexnologik kartasini, ya’ni o`qituvchi va o`quvchining mazkur o`quv mashg’ulotida erishadigan maqsadi bo`yicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta’riflanishini ham o`z ichiga oladi.

Majmua tarkibi kirish, ta’lim tyexnologiyasining kontsyeptual asoslari, har bir mavzu bo`yicha ma’ruza va syeminar mashg’ulotlarida o`qitish tyexnologiyasidan iborat. Ma’lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni o`zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalanilgan.

Majmuaning kontsyeptual asoslari qismida dastlab «Turizm va uni o’qitish metodikasi» fanining dolzarbligi va ahamiyati, mazkur o`quv fanining tarkibiy tuzilishi, o`qitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan kontsyeptual fikrlar, kommunikatsiyalar, axborotlar byerilib, so`ngra loyihalashtirilgan, o`qitish tyexnologiyalari taqdim qilingan.

To`qqiz turdagi ma’ruza mashg’ulotlari: kirish, tyematik, muammoli, vizual–ma’ruza, binar ma’ruza, ma’ruza-munozara, hamkorlikdagi ma’ruza, avvaldan ryejalashtirilgan xatoli ma’ruza, sharhlovchi ma’ruza byerilgan.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko`rinib turibdiki, ta’lim jarayoniga o`qitishning yangi, zamonaviy usul va vositlari kirib kyelmoqda va samarali foydalanilmoqda. Jumladan, jismoniy madaniyat fakultetida ham innovatsion va zamonaviy pyedagogik g’oyalar amalga oshirilmoqda: o`qituvchi bilim olishning yagona manbai bo`lib qolishi kyerak emas, balki talabalar mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o`quv jarayonining myenyejyeri bo`lishi lozim. Ta’lim tyexnologiyasini ishlab chiqish asosida aynan shu g’oyalar yotadi.

# 1 – MA’RUZA.

# KIRISH. TURIZM HAQIDA TUSHUNCHALAR VA ULARNING PAYDO BO’LISHI.

Fan: Turizm va uni o’qitish uslubikyati.

O’quv soati: 2 soat ( ma’ruza).

O’quv mashg’ulotlari turi: ma’ruza; yangi mashg’ulotlarni mustahkamlash va o’rganish.

Maruza rejasi:

1.Fan to’g’risida umumiy tushuncha.

2.Fanning maqsadi va vazifalari.

3.Turizmning rivojlanish tarixi.

4.Turizm turlari.

**Fanning nazariy (ma’ruza) mashg’ulotlari mazmuni va maqsadi.**

Turizm turlari tarixi, rivojlanish bosqichlari
va pyedagogik ahamiyati

O`zbyekistonda turizmning rivojlanish tarixi. Rivojlanish bosqichlari.
Turizmni rivojlantirishga oid diryektiv hujjatlar.
Mashhur turistik marshrutlar.

Turizm turlarini bolaning yoshiga mos holda tanlash va o`tkazish

Turizm turlari: umumta’lim maktabi, o`rta maxsus kasb – hunar ta’lim muassasalari o`quvchilari, talabalari bilan turistik sayohatlarni ryejalashtirish va tashkil qilishning o`ziga xos xususiyatlari. Har bir sayrning rivojlanish bosqichlari va tarbiyaviy ahamiyati.

Turizm turlarini bolaning yoshiga mos holda tanlash va o`tkazish. O`quvchi va talabalarning yosh xususiyatlarini va jinsini hisobga olgan holda kichik, o`rta va katta mye’yordagi harakatlar, jismoniy mashqlarga taalluqli elyemyentlar mazmuni, tavsifi, tahlili.

**O’qitish texnalogiyasi:**

- O’qitish usullari: ma’ruza, instruktash, aqliy hujum.
- O’qitish shakllari: frontal, jamoaviy.
- O’qitish vositalari: ma’ruza matni, turizm jihozlar, jadvallar.

- O’qitish sharoitlari: auditoriya.
- Baholash va monitoring: og’zaki savol- javob, so’rov.

**Pedagogik masalalar:**

- Fanning masalalariva uning o’quv fanlar sistemasidagi o’rni va roli bilan tanishtirish ;
- O’quv faning tuzulmasi va tavsiya etilgan o’quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasidagi metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma’ruzasi paytida o’qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini harakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish;
- O’qitish texnalaogiyasini prerspektivasini harakterlab berish;

**O’quv faoliyati natijalari:**

- Fan ma’ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakllanadi;
- Fan sohasida metodik va tshkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi;
- Fan ma’ruzasida o’qitish jarayonini tashkil qilishniong umumiy sxemasini kengaytirib harakterlab beradi;
- Fanning asosiy tariflarini beradi;
- Nazariy bilimlarni to’liqligi, sistemaleligi va harakterliligini ochib beradi;
- Amaliy mashg’ulotlarni bajarishda o’rganilgan iboralar bilan ishlay oladi.

MA’RUZA MASHG’ULOTLARI UCHUN XRONOLOGIK KARTA

**1-etap. O’quv mashg’ulotiga kirish (15 daqiqa)**

a*) o’qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (konspektni mavjudligi, ishonchililik va aniqlik , davomat); kerakli materiallarni tarqatish ( konspekt mavjudligi, tarqatma materialar); ma’ruza mavzusi va maqsadini aytish; o’quv mashg’ulotini rejasi; tayanch iboralar hamda adabiyotlar ruyxati bilan tanishtirish. Reyting nazorat tizimi va utkaziladigan J.B.,OB lar mezonlari bilan tanishtirish.

B*) talaba faoliyati*; o’quv joyini tayyorlash ( talabalar soni, tashqi kurinishi, o’quv materiallari, va jihozlar), ma’ruza mavzusi va maqsadi bilan tanishish, o’quv materiallarini qabul qilishga tayyorlanish.

B) *O’tkaziladigan metodlar, shakllar,usullar*; instruktaj, frontal surov,

topshiriqlar, mustaqil topshiriqlar, tarqatma kartochkalar.

**2-etap. Asosiy qism ( 55 daqiqa)**

A) *O'qituvchining faoliyati*; mavzuga kirish, ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan oldingi mavzularni yodga olish, ma'ruza matnini tarqatish va mavzu bilan tanishishni tavsiya etish hamda belgilash, birinchi reja buyicha ma'ruza o'qish, diktovat qilish va qo'shimcha materiallarga tushuncha berish, slayidlarni namoiyish etish va tushuntirish, tushunmagan savollarga aniqlik kiritish va javob berish. ( barcha savolnomalar xudi shunday tashkil etilishi lozim).

B*) talaba faoliyati*; yangi mavzu bilan bog'liq bo'lgan oldingi mavzular bo'yicha bilimni mustaxkamlash, ma'ruzani diqqat bilan eshitish va yozib borish, har bir tayanch iboralarni aytish va yozib borish, savollar berish, muxokama etish.

B) *metodlar, shakllar, usullar*; frontal surov, alohida, blis- surov.

**3-etap. Xulosa. (10 daqiqa).**

A) *O'qituvchi faoliyati*; mavzu buyicha xulosa qilish, talabalar diqqatini mavzuga jalb etish, bajarilgan ishning muhimligini isbotlab berish, alohida talabalarni baholash,va rahbatlantirish, mavzuni maqsadga erishganligini tahlil etish, mustaqil ish uchun topshiriqlar berish.

B*) talaba faoliyati*; mavzuni tahlil etish, olingan tajriba va kunikma, texnologik bilimlarni mustaqil qo'llay bilish, o'z-o'zini baholay bilish, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlay bili shva tahlil etish, mustaqil topshiriqlarni bajarish.

B*) metodlar, shakllar, usullar*. Guruhlarda o'zaro ishlash, topshiriq kartochkalarni tahlil etish va x.z.

## 1 – MA'RUZA MATNI.

## KIRISH. TURIZM HAQIDA TUSHUNCHALAR VA ULARNING PAYDO BO'LISHI.

REJA:

1.Fan to'g'risida umumiy tushuncha.

2.Fanning maqsadi va vazifalari.

Z.Turizmning rivojlanish tarixi.

4.Turizm turlari.

Tayanch iboralar:

Sayr-sayohat, rivojlanish tarixi, dam olish, o’lkani, o’rganish, texnika, taktika, maqsad, ulug’ allomalar, sayr-sayohat to’g’risida, mustaqillik davrida.

Turizm (sayohat) dam olish, xordiq chiqarish, o’lkani o’rganish, chet mamlakatlarga sayoqat qilish haqkdagi fandir.

Turizmda qo’llaniladigan turli xil jismoniy mashqlar, ularni tashkil qilishning shakl va usullari axolini, ayniqsa, o’quvchi yoshlarni jismoniy va ma’naviy kamolotini tarbiyalashda muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida» (1992 y. 14 yanvar), «Ta’lim to’g’risida» (1997 y. 29 avgust), «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi » kabi chiqarilayotgan qonunlar yosh avlodni ma’naviy, jismoniy kamolotini oshirishga qaratilgan.

Turizmning boshlang’ich tushunchalari, ya’ni turistik poxodlar, sayohatlar, turistik texnika, turistik taktika, turizmni o’rganish, turistik tayyorgarlik, sportcha chamalab topish va x.k.

Turizm so’zi lotin tilidan olingan bo’lib, u aylana bo’ylab harakat qilish - degan ma’noni bildiradi. Keng ma’noda buni kishilarni xayotda harakatda bo’lishlari tushuniladi. Shuningdek, turizm «tur» (belgi) o’rnatish, ya’ni tog’ adirlar, uzoq masofalarga sayohat qilish, so’nggi manzilga belgi ko’yish yoki cho’qqiga chikqanligini bildirish uchun biron bir belgi (yozuv, byust, haykal va x,.k) qoldirishni bildiriladi.

Turistik poxodlarda sportcha chamalab topish, voleybol, yengil atletika va xalq milliy o’yinlaridan keng foydalaniladi. Turizmning texnik tushunchalari poxodga tayyorgarlik shartlari, yuriщ, to’siqlardan o’tish, turistik jixrzlaridan foydalanish, turistik turmush sharoitlarini bilish va ulardan foydalanish keng tushuniladi. Turistik taktika tushunchasi esa kompas, karta, sxema va boshqa asboblar xamda tibbiy sharoit vositalari orqali turistik poxod, slyot, sayohatlarga qo’yiladigan maqsad va vazifalarga erishish, topshiriklarni ado etish demakdir.

Turizm fanining maqsadi va vazifalari

Turizm fani jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi xisoblanib, u ham yosh avlodni jismonan baquvvat, xar tomonlama yetuk kishilar etib tarbiyalashga qaratilgan.

Turizm fani ilmiy, nazariy o’quv predmeti xisoblanadi. Chunki, turistik poxodlar, amaliy mashg’ulotlar, slyotlar turli musobaqalar jarayonida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilishga asos yaratadi. Bunda turizm bilan shug’ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi, ularning faolligi, fikr doiralari, xarakat malakalarining rivojlanish sharoitlari eksperement yo’li bilan o’rganiladi.

Turizm fanining asosiy maksad va vazifalari qo’yidagilardan iborat:

1) Bo’lajak mutaxasis kadrlarni turizmning forma va metodlari bilan qurollantirish;
2) Oliy o’quv yurtlari, akademik lisey va kasb hunar kollejlari, umumta’lim maktablari, bolalar muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va mahallalarda turistik ish formalarini tashkil etish;
3) Programmadagi barcha materiallarni qurollantirish;

4) Nazariy, amaliy mashg'ulotlar va turistik poxodlarda talabalarni jismoniy chiniqtirish, turistik talablarni bajarishlar turizmning asosiy vazifalaridan xisoblanadi. Turizmning asosiy maqsadi:

Sayr-sayohat yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbatni, mehnat sevarlikni, tabiatga ongli munosabatda bo'lishni va o'zaro hamkorlikni tarbiyalashda myhim omillardan biri xisoblanadi. Masalan: Yoshlarni tabiatimizning eng go'zal joylariga (tog', qir, adir, tarixiy madaniy obidalar va x,k.) sayr - sayohatga yetaklasak, ular qalbida tabiatga, Vatanga va milliy qadriyatlarimizga bo'lgan tarbiyani shakllangiramiz.

Turizmning tarbiyaviy sog'lomlashtirish va ta'limiy ahamiyati

Tarbiya - yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning mustaqillik ongini va xulq atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Turizm jismoniy tarbiyaning ajralmas kismi sifatida sog'lomlashtirish va kompleks tarbiyani amalga oshirish vazifalarini bajaradi. Bu esa shaxsni har tomonlama kamol toptirishdan iborat.

Turizm aqliy tarbiya taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarning geografiya, biologiya, tarix, geologiya, ekonomika va boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim va malakalarini oshiradi. Sayohatlar jarayonida axloqiy irodaviy sifatlar, sof vijdonlik, uyushqoqlik, jasurlik, burchni his qilish, o'zaro yordam va o'rtoqlik his-tuyg'ulari sinovdan o'tadi va chiniqadi. O'kuv yurtlari va ishlab chiqarish mehnat jarayonlarida harakter, ishonch tushunchalari umumiy ma'noda shakllansa, turistik. sayohatlar jarayonida ular amalda sinaladi. Turistik faoliyatlar jarayonida mehnat malakasi xam shakllanadi. Masalan turistlar butun sayohat davomida yuk ko'tarish, turli to'siklardan o'tish, kechalari tunash uchun joy tayyorlash, ovqat pishirish uchun joy tayyorlash, ovqat pishirish uchun o'tin to'plash va xakazolar.

Tegishli yuklarni (oziq-ovqat, palatka va x,k.) kutarish, palatkalar o'rnatish, navbatchilik qilish vazifalarini bajarishda ba'zi yoshlar o'ta yalqovlik qilishlari yoki ishni sifatsiz bajarib qo'yishlari mumkin. Turistik sayohat qonunlarida bularga aslo o'rin yo'q. Aksincha bunday xollarda faqat oddiy turistlargina emas, balki poxod rahbarlari ham faol ishtirok etishga majburdir. Demak, sayohatlarda tarbiyaviy ishlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa poxod qatnashchilariga mehnatni sevish, birdamlik, o'zaro bir-birini hurmat qilish kabi xususiyatlarni mustaxdamlaydi.

Haqiqatdan ham hozirgi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishda o'kuv yurtlari, mexnat jamoalari, ota-onalarn butun jamoatchilik olib boradigan tarbiyaning barcha turlari va vositalari, shuningdek, turizm va barcha sport turlarining roli kattadir. Ko'pchilik mutaxassislarning ilmiy tekshirishlariga qaraganda, keyingi paytlarda faol harakatning kamayishi natijasida idora xodimlari, akliy mehnat kishilari va boshqa sohalardagi kishilarda yurak, qon-tomir kasalliklari, nafas olish organlarida xastaliklar mavjud bo'layottani sezilmoqda. Bu xastaliklarni oldini olish uchun shifokorlarimiz doimo faol xarakat qilish lozimligini uqtirmoqdalar. Bunday harakatning asosiysi turizm bilan shug'ullanishdir.

Respublikamiz tabiati shunchalik go'zalki, u yurib charchamaydigan, ko'rib ko'z to'ymaydigan diyor. Chotqol, Chimyon, Shohimardon, Baxmal, Omonqo'ton tog'lari, Sirdaryo, Zarafshon vohalari dam olish, poxodlar uyushtirish, sog'liqni qayta tiklash va uni mustahhamligining sehrli davo vositalaridan hisoblanadi.

## Turizmning rivojlanish tarixi

Turizmning insoniyat faoliyatida, oila turmush sharoiti va madaniyat xamda jismoniy kamolot yo'lidagi o'rni P.Ye.Passechniy, V.G.Fadeyev (1980 y), V.P. Morgunov (1978 y), I.P.Milonov (1969 y), K.I. Vaxliyev (1983 y), R. Abdumalikov, T. Xoldorov (1988 y) kabi bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan atroflicha o'rganilib chiqilgan. Ularning ta'kidlashlaricha, eramizdan oldingi VI asrlarda davlatlar, xalqlar o'rtasida savdo va madaniy aloqalar keng tarakkiy etgan. Shunga ko'ra, dastlabki sayohatchilar savdo ishlari bilan aloqador bo'lgan shaxslar ekanligi shubhasizdir. Ayniqsa, qadimgi Yunon, Arab davlatlari o'rtasida savdo-sotiq ishlari ancha rivojlanganligi bizga tarixdan ma'lum. "Tarix otasi" Gerodot birinchi sayyohlardan xisoblanadi. U o'zining tarixiy asarlarida qilgan sayohatlari to'g'risida eramizning 459 yilidayoq hikoya qilgan. Shuningdek, sayohatlarning shakllanishi va rivojlanishda qadimgi greklarning ham hissasi juda katta. Chunki, ular kadimgi Olimpiya o'yinlarini tomosha qilish maqsadida uzoq-uzoqlarda Olimp shaxarchasiga sayohat qilganlar. Bundan tashkari ular sog'likni "tiklash uchun "tilsimli davo" izlab tog', vodiy o'lkalarini kezib chiqishgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, hatto Aleksandr Makedonskiy ham O'rta Osiyoga umrni uzaytiruvchi, insonni qayta yoshartiruvchi "tilsimli suv" qidirib kelgan.

Aristotel, Demokrat, Kvintilmon va boshqa mashxur faylasuflar o'z asarlarida tarbiya to'g'ririda gapirar ekanlar, odamlar, albatta, go'zal tabiat qo'ynida bo'lishlari, sayohat qilishlari zarurligini ta'kidlab o'tganlar.

Turizm O'rta Osiyoda ham qadimdan mavjud bo'lgan. Qadimiy ajdodlarimizning daryo, ko'l sohillarida, cho'lu biyobonlarda sayr qilishi, tog' cho'qkilariga chiqishi, ovchilik qilganlari haqida bizga ko'pgina tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodidan ma'lum.

Chunonchi, Maxmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Ro'dakiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va ko'pgina boshqa allomalarning asarlari, shuningdek, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Intizor", "Rustamxon", " Ravshan" va boshqa xalq og'zaki ijodi manbalarida turizmning ilk debochalari o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy sog'lom turmo'sh tarzini shakllantirish, kishi sog'ligini mustaxlamlash, dunyoqarashini kengaytirish, insoniy va axlokiy sifatlarini qaror toptirishda jismoniy mashqlar, o'yinlar turli harakatlar ayniqsa, sayohat qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini aloxida ta'kidlab, jumladan, shunday yozadi: "Arzi soqin qaydovu sipexri davvor qayda, turobbi mutamakkin qaydavu, kavkabi sayyor qayda. Ul biri sukundin xeksorlar poyondozi bo'ldi. Va bu bori taxarrukdin sarafrozlar sarafrozi. (Tinch turgan yerning fazilati qayda, aylanuvchi osmonning afzalligi qayda. Bir joyda mahkam turgan tuproq qaydayu, sayr qilib yurgan yulduz qayda. O'lardan birinchisi harakatsiz turishidan xokisorlar oyog'i ostida, ikkinchisi esa xarakati tufayli yuqorilarning yuqorisi.) Cayohat ranju mashakqatga sabab, moya tovozu va adabdur. Sayohat (safar) kuron gudozu so'zdir va ul gudozu suv erning vujudi oltuniga iyor anduz (sayehat qilish ranju mashaqqatga sabab bo'lsa ham kamtarlik va adabning moyasi xisoblanadi. Sayohat quyishu yonishning o'chog'i va bu qo'yishu yonish er

kishining vujud oltinining o’lchovi). Safar vodiysida musofir (safar qiluvchi) oyog’iga dardu balo tikoni ko’p sanchilur, va lekin ul tikondin maqsud guli ochilur. Yul emg’oki (mehnati) shiddatidan badani ko’p tovshalur (ya’ni ezilur) ammo ko’ngli buzug’lug’lari yosolur (ketur) va ruxi ko’zgusi safo (tozalik) olur. Va har kishilar mamlakat orayishini va har bir manzilni osoyishini safar ahlidan sur va musofirdan ko’r. Safar qilmog’an orom faroxatin qayda bilsun va g’urbat chekmog’an kon rifoqayyatin (baxt farovonligini) ne nav’ ma’lum qilsun. Daryoni sokin (tinch) dur suyidin yutsa bo’lurmi? Va rud (daryo) ki mutaxarrik (xarakat kdluvchi) zur sulol (suv) tarkin tutsa bo’lurmi? Taxarruk (xarakat) ahliga hayotdin olardur va jamulat xayli (qotgan narsalar) tiriklik nishonasidan bexabar".

Shunday ekan, O’rta Osiyoda sayr - sayohat qadimdan rivojlanib, takomillashib kelmokda.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng, sayohatni rivojlantirish borasida ko’pgina ishlar amalga oshirilmokda. Jumladan, tarixiy madaniy obidalarni qaytadan ta’mirlash, tabiat va ekologiyani asrash kabi chora tadbirlar, ayniqsa, "O’zbekturizm" (1992 yil) tashkilotining tashkil topishi, sayr-sayohatni rivojlantirish va takomillashtirish uchun dastur ishlab chikdi.

Nazorat savollari:

1. Turizmning (sayohat) rivojlanish tarixi,
2. Turizm fanining tarbiyaviy ahamiyati.
3. Turizm fanining vazifalari.
4. Turizm fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
5. Ulug’ allomalarimizning sayohatga bo’lgan qarashlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O’zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida", gi qonun. Toshkent 1992 yil.
2. O’zbekiston Respublikasining "Ta’lim to’grisida"gi qonuni. Toshkent 1997 yil
3. R.A. Abdumalikov, T. Xoldorov "Turizm". Toshkent "O’kituvchi" 1988 yil
4. Hasaniy M., S. Karimov "Navoyi davri tabobati" . Toshkent "Ibn Sino" nomli nashriyot 1991 yil 126-bet.
5. M.A. Verba, SM. Golisin, V.M. Kulikov, Ye.G. Ryabov "Maktabda turizm" Toshkent "O’qituvchi" 1990 yil.

2– MA’RUZA.
# AHOLINI BARCHA TABAQALARI UCHUN OMMAVIY SAYR-SAYOHATNING QULAYLIGI.

Fan: Turizm va uni o’qitish uslubikyati.

O’quv soati: 2 soat ( ma’ruza).

O’quv mashg’ulotlari turi: ma’ruza; yangi mashg’ulotlarni mustahkamlash va o’rganish.

REJA:

1. Sayohat - tanga rohat.
2. Sayohatning o’ziga hos qonun qoidalari.
3. Sog’lomlashtirishtiruvchi sport oromgoxlarida sayr-sayohat.

**Fanning nazariy (ma’ruza) mashg’ulotlari mazmuni va maqsadi.**

Turizm turlari tarixi, rivojlanish bosqichlari
va pyedagogik ahamiyati

O`zbyekistonda turizmning rivojlanish tarixi. Rivojlanish bosqichlari.

Turizmni rivojlantirishga oid diryektiv hujjatlar.

Mashhur turistik marshrutlar.

Turizm turlarini bolaning yoshiga mos holda tanlash va o`tkazish

Turizm turlari: umumta’lim maktabi, o`rta maxsus kasb – hunar ta’lim muassasalari o`quvchilari, talabalari bilan turistik sayohatlarni ryejalashtirish va tashkil qilishning o`ziga xos xususiyatlari. Har bir sayrning rivojlanish bosqichlari va tarbiyaviy ahamiyati.

Turizm turlarini bolaning yoshiga mos holda tanlash va o`tkazish. O`quvchi va talabalarning yosh xususiyatlarini va jinsini hisobga olgan holda kichik, o`rta va katta mye’yordagi harakatlar, jismoniy mashqlarga taalluqli elyemyentlar mazmuni, tavsifi, tahlili.

**O’qitish texnalogiyasi:**

- O’qitish usullari: ma’ruza, instruktash, aqliy hujum.
- O’qitish shakllari: frontal, jamoaviy.
- O’qitish vositalari: ma’ruza matni, turizm jihozlar, jadvallar.
- O’qitish sharoitlari: auditoriya.
- Baholash va monitoring: og’zaki savol- javob, so’rov.

**Pedagogik masalalar:**

- Fanning masalalariva uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish ;
- O'quv faning tuzulmasi va tavsiya etilgan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasidagi metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini harakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish;
- O'qitish texnalaogiyasini prerspektivasini harakterlab berish;

**O'quv faoliyati natijalari:**

- Fan ma'ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakllanadi;
- Fan sohasida metodik va tshkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi;
- Fan ma'ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishniong umumiy sxemasini kengaytirib harakterlab beradi;
- Fanning asosiy tariflarini beradi;
- Nazariy bilimlarni to'liqligi, sistemaleligi va harakterliligini ochib beradi;
- Amaliy mashg'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay oladi.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI UCHUN XRONOLOGIK KARTA

**1-etap. O'quv mashg'ulotiga kirish (15 daqiqa)**

a*) o'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (konspektni mavjudligi, ishonchililik va aniqlik , davomat); kerakli materiallarni tarqatish ( konspekt mavjudligi, tarqatma materialar); ma'ruza mavzusi va maqsadini aytish; o'quv mashg'ulotini rejasi; tayanch iboralar hamda adabiyotlar ruyxati bilan tanishtirish. Reyting nazorat tizimi va utkaziladigan J.B.,OB lar mezonlari bilan tanishtirish.

B*) talaba faoliyati*; o'quv joyini tayyorlash ( talabalar soni, tashqi kurinishi, o'quv materiallari, va jihozlar), ma'ruza mavzusi va maqsadi bilan tanishish, o'quv materiallarini qabul qilishga tayyorlanish.

B) *O'tkaziladigan metodlar, shakllar,usullar*; instruktaj, frontal surov, topshiriqlar, mustaqil topshiriqlar, tarqatma kartochkalar.

**2-etap. Asosiy qism ( 55 daqiqa)**

A) *O'qituvchining faoliyati*; mavzuga kirish, ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan oldingi mavzularni yodga olish, ma'ruza matnini tarqatish va mavzu bilan tanishishni tavsiya etish hamda belgilash, birinchi reja buyicha ma'ruza o'qish, diktovat qilish va qo'shimcha materiallarga tushuncha berish, slayidlarni namoiyish etish va tushuntirish, tushunmagan savollarga aniqlik kiritish va javob berish. ( barcha savolnomalar xudi shunday tashkil etilishi lozim).

B*) talaba faoliyati*; yangi mavzu bilan bog'liq bo'lgan oldingi mavzular bo'yicha bilimni mustaxkamlash, ma'ruzani diqqat bilan eshitish va yozib borish, har bir tayanch iboralarni aytish va yozib borish, savollar berish, muxokama etish.

B) *metodlar, shakllar, usullar*; frontal surov, alohida, blis- surov.

**3-etap. Xulosa. (10 daqiqa).**

A) *O'qituvchi faoliyati*; mavzu buyicha xulosa qilish, talabalar diqqatini mavzuga jalb etish, bajarilgan ishning muhimligini isbotlab berish, alohida talabalarni baholash,va rahbatlantirish, mavzuni maqsadga erishganligini tahlil etish, mustaqil ish uchun topshiriqlar berish.

B*) talaba faoliyati*; mavzuni tahlil etish, olingan tajriba va kunikma, texnologik bilimlarni mustaqil qo'llay bilish, o'z-o'zini baholay bilish, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlay bili shva tahlil etish, mustaqil topshiriqlarni bajarish.

B*) metodlar, shakllar, usullar*. Guruhlarda o'zaro ishlash, topshiriq kartochkalarni tahlil etish va x.z.

Tayanch iboralar:

Sayohat, qonun qoidalari, sayohatga tayyorganliklar (jismoniy, texnik, taktik).

# 2- Maruza matni.

## AHOLINI BARCHA TABAQALARI UCHUN OMMAVIY SAYR-SAYOHATNING QULAYLIGI.

Yashayotgan davrimiz bizdan ishchanlik, shijoat, chidamlilik, qat'iylikni talab etadi, buning uchun esa har bir kishi sog'lom, jismonan baquvvat, barkamol bo'lishi kerak. Shunday bo'lishni ko'pchilik orzu qiladi. Ular buni nazariy jihatdan tushunsalarda, amalda unga umuman amal qilishmaydi. Oqibatda kamharakatlilik, ishyoqmaslik, xafsalasizlik tufayli turli kasalliklarga chalinib qolishadi.

Jismimizni chiniqtirishga doir bo'lgan ba'zi bir omilar hakida fikr yuritaylik. Harakatda baraka deganlaridek, inson mehnati bilan ulug'dir. «Mehnat-inson ziynati», degan maqol ham har bir kishini faol harakatga undaydi. Mehnat, harakat bir-birini to'ldiradigan xamda juda uyg'unlashib ketgan jismoniy faoliyat hisoblanadi. Shu sababli insonni mehnat yaratgan, mehnat tarbiyalaydi, degan tushuncha xayotimizga

va ongimizga sinib ketgan.

Hozirgi paytda jismoniy mehnat qilish hammaga ham xush kelavermaydi. Buning boisi, birinchidan, unga odatlanmaslik oqibati, ikkinchidan, sog'liqni mustahlamlashga doir amaliy tadbirlar, nazariy targ'ibot ishlarining kamligidir. Insonning jismoniy kamoloti omillar ko'p. Ulardan eng muhimi yugurish, suvda suzish, gimnastika mashklari, sport o'yinlari hisoblanadi.

Ajdodlarimizdan qolgan bir gap bor: «Sayohat-tanga rohat». Shu sabab bobokalonlarimiz Abu Ali ibn Sino, Bobur, Navoiy kabi ulug' siymolar sayohat, ov qilish tanga roxat, zavq berishini aytibgina qolmasdan, o'zlari ham tog'larga ko'l, daryo sohillariga chiqib ov bilan shug'ullanganlar; Bunday dam olishlardai keyin unumli mexnat, ilxom bilan ijod qilishganlar. Ob-havoning qanday bo'lishidai qatiy nazar fasllarning tanlamay turib, tog' sayriga chiqish, daryo ko'l sohilarida gulxan yoqib, ko'shiq aytish, tabiatdan bahramand bo'lish o'kuvchilarning ezgu orzusi hisoblanadi.

Pomir, Oloy, Hisor, Chotqol, Turkiston tizma tog'lari yon bag'rilarida miriqib dam olib kelayottan yoshlar o'z tengdoshlariga namuna bo'lmokda.

«Tog' havosi-jon davosi», degan naqd bor. Kavkaz, Tyan-Shan tog'larida yashaydigan xalqlar orasida 120-140 yildan ortiq umr ko'rgan kishilar anchagina bor.

Boysun, Bobotog', Turkiston, Nurota tizma tog'lari, Baxmal, Zomin Chotqol tog' yonbag'ri qishloqlarda yashab mehnat qilayotgan kishilar nuroniy keksalar, chayir yoshlarni ko'rganingda, beixtiyor ularning issiq va sovukdan qorayib, yaltirab turgan yuzlariga xavas bilan qarab, mahliyo bo'lsan, kishi. Jazirama issiqlar, qahraton qishning bo'roni va sovuq izg'irinlari insonni chiniqtiradi. U bahorning iliq shabadalari inson ruhini tetik qiladi. Shu tufayli u tabiat qo'ynida zavq bilan mexnat qiladi, mol boqadi, tog'-adirlarni piyoda kezadi, ekin ekadi. Shu sababdan tog' odamlari sog'lom bo'ladilar. Keksalar o'z farzandlariga mexnat, yashash zavqi sirlarini berib, oziklantirib boradi. Shu sabab bo'lsa kerak, tog'li kishilar o'z joylarini tashlab ketmaydilar, eng og'ir damlar, xatto urush yillarida ochlik, qiyinchiliklarga bardosh berib, tog'li qishloklarni vayrona va xarobaga aylanib yo'q bo'lib ketishga yo'l qo'ymaganlar.

Sayohat deganda, o'lkani o'rganish, turli xil giyoxlar, dorivor o'simliklarni yig'ish, parrandalar, hayvonot, dunyosi va tabiat manzalari bilan tanishish tushuniladi. Oddiy sayohat dam olish, hordiq chiqarish maqsadida 1-2 kunga mo'ljallanishi mumkin.

Sayohatning o'ziga xos qonun-qoidalari bo'ladi. Xususan safarga otlangan har bir kishi qo'ydagilarni bajarishi lozim:

1. Safar yo'lini o'rganish;
2. Vaqtni hisobga olgan holda safar jabduqlari va oziq-ovqatni jamg'arish;
3. Dastlabki tibbiy yordam uchun zarur bo'lgan dori-darmonlarni olish, ularni ishlatish yo'llarini o'rganib olish zarur;
4. Sayohatda uchraydigan turli xil to'siqlar va dovonlardan

o’tish qoidalarini avvaldan o’rganish;

5. Imkoni boricha turistlar guruhiga ko’shilish yoki uni tashkil kilish;
6. Safar jarayonida to’xtab o’tadigan manzilgohlarda turistik hujjatlarni rasmiylashtirib borish;
7. Sayohat tugagach, hisobot tuzish va rasmiy xujjatlarni rahbarlarga yoki tegishli tashkilotlarga (korxona, kasaba uyushmasi klubi va h.k) topshirish;

Bu shartlar va qoidalarni o’rganib olish uchun sayohat bo’yicha adabiyotlar bilan tanishish talab etiladi. Sayohatga chiqish oldida va sayohat paytida bajarish shart bo’lgan jismonyy mashklar hakida ba’zi tavsiyalarni taklif etamiz.

Safar oldidan jismoniy tayyorgarlik ko’rish uchun qo’yidagi mashqlarni bajarish shart bo’ladi:

1. Yilning fasli, ob-havoni hisobga olgan holda ertalabki gimnastika mashqlarni bajarish.
2. Ishdan bo’sh vaqtlarda (kechki paytlarda) 1-2 km masofaga sekin yurish, gantel va boshqa predmetlar bilan mashq bajarish.
3. Past-baland, adir joylardan sakrab o’tish, piyoda yugurish.
4. Sovuq suvda yuvinib turish.

O’z-o’zidan malumki, bunday talablarni muntazam bajarib borgan kishilarda sezilarlik darajada harakat malakasining yaxshilanishi, chiniqishi va odatlanish vujudga keladi.

Sayohat jarayonida turli xil xarakatlar tabiiy ravishda bajariladi. Ya’ni balandliklarga chiqishda, qomatni oldinga engashtirish, ilon izi qilib burilib yurish, yoki pastga yurganda esa gavdani to’g’ri tutish, yonboshlab yurish, ko’ldagi tayoqdarga tayanish, tizzalarni bukish, ariqdardan sakrab o’tish, daraxtlarning shoxlarini ushlab yoki ularga suyanib o’tish kabi holatlar yuz beradi.

Bunday xarkatlar sayohat jarayonida asta-sekin o’rganib boriladi. Uz navbatida tabiiy sharoitlarda mashqlar qilib borish kerak bo’ladi, buning uchun ertalab turganda qir-adir, soyliklarda yugurish, toshlarni ko’tarish, daraxtlarga ocilib tortish va shunga uxshash mashqlarni bajarib borish muhim.

Demak, tabiat shaydosi bo’lgan xar bir sog’lom kishi, umrni uzaytirishga jiddiy va amaliy kirishadi. Xayotga umid bilan qaragan xar bir inson tog’ sayriga, daryo sohillarida orombaxsh etuvchi zavqli damlarga otlanishi, safarga chiqishi kerak.
O’zbekiston sharoitida bu qadimiy an’analar uz kuchi, moxiyati va ahamiyatini aslo yo’qotganicha yo’k.

Sayohat uyushtirish va uning yaxshi natijalari jumxuriyatimiz misolida yaqqol .namoyon bo’lmoqda. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va shunga o’xshash qadimiy yodgorliklar makoni bo’lgan yirik shaxarlarga kelib ketayotgan sayyoxlar soni xozirgi kunda tobora ortib bormokda. Buning albatta, tarbiyaviy ta’siri beqiyosdir.

Sog’lomlashtiruvchi sport oromgoxlari.

Sog’lomlashtiruvchi sport oromgoxlari deganda, sog’lig’i zaif kishilar va sportchilarning hordiq chiqarish maskani tushuniladi. Bunday maskanlar o’z navbatida quyidagi turlarga bo’linadi.

1. O’quvchilarning yozgi dam olish oromgohi.
2. Talablarning sport sog’lomlashtirish oromgoxdari.
3. Ishchi va mexnatkashlarning dam olish oromgoxlari.
4. Shahsiy dam olish dala hovlilari.

Ma’lumki, o’kuvchilarning yozgi dam olish oromgohlarida asosan, ota-onalar, maktab ma’muriyati tashabbusi bilan sog’lig’i zaif bolalar jalb etiladi. Shu bilan birgalikda sog’lig’i mustahkam sportchi o’kuvchilar ham oromgoxlarga boradilar.

Demak, o’quvchi yoshlarning yozgi dam olish oromgoxlarda ta’lim-tarbiya va jismoniy chiniqtirish shakllari xamda usullari turlicha bo’ladi, asosan ertalab gimnastika, kechki paytlarda futbol, voleybol basketbol, tennis, shaxmat- shashka va boshqa sport turlari bilan mashg’ul bo’linadi. Dam olish kunlari guruh-guruh bo’lib tog’ sayri va cho’milishga jalb etiladi. Bunday tadbirlarni asosan jismoniy tarbiya raxbari va tarbiyachilar olib borishadi. Sog’lig’i zaif o’kuvchilar tibbiy nazorat ostida bo’lishadi. Ta’kidlash joizki, O’zbekistonda tabiatga boy va xushmanzarali joylari ko’p. Chotqol tizma tog’lari, Farg’ona vodiysini o’rab olgan Tyan-Shan tog’ etaklari, Turkiston, Nurota, Xicop, Bobotog’ yonbag’irlarida yuzlab yozgi dam olish oromgoxlari va sayohat masakanlari tashkil qilinib, xar yili o’n minglab o’kuvchilar, talabalar va ziyolilar hordiq chiqaradilar.

Toshkent, Samarkand, Farg’ona, Buxoro, Namangan, Jizzax va boshqa yirik shaharlarning yaqin atroflarida yozuvchilar, shoirlar, davlat va jamoat arboblari xamda oddiy mexnatkashlarning dam olish maskanlari tashkil kilingan. Ular o’z imkoniyat doirasida futbol, voleybol, tennis va boshqa sport turlari bilan shug’ullanishi uchun o’zlariga yarasha sharoitlar yaratib olganlar. Shuningdek, yaqin atrofdagi daryo, kul, suv ombori va kanallarda miriqib cho’milishadilar.

Turizim ishida ommaviylikka erishiщ uchun qo’yidagilarni bajarishimiz zarur:

- maktabgacha talim muassasalarida bolalarni sayr-sayohatga olib chiqish;
- umumta’lim maktablarida barcha fanlarni o’qitishda sayr-sayohatning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ifodalovchi ilmiy asoslangan tushuncha berish;
- akademik lisey va kasb-hunar kollejlaridagi yoshlarni har xil turdagi sayr-sayohtga jalb kilish;
- maxallalarda sayr-sayohatni uyushtirish va tashkillashtirish

Nazorat uchun savollar:

1. Turizmning (sayohat) ommaviyligi.
2. Turizmning (sayohat) qonun qoidalari.
3. Sog’lomlashtiruvchi sport oromgoxlarida sayohatni tashkil etish yo’llari.
4. Jumxuriyatimizda tashkil etilgan ommaviy soglomlashtirish oromgoxlari to’g’risida tushuncha.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Abdumalikov, T.Xoldorov. «Turizm» - 1990 y.
2. R.Qosimova. «Talabalarni ommaviy sog’lomlashtirish tadbilarida xalq milliy o’yinlaridan foydalanish masalalari».

3. I.A.Verba, S.M. Golisin, V.M. Kulikov, Ye.G.Ryabov. «Maktabda turizm» - 1990 y.

## 3 – MA'RUZA.

## XALQARO TURIZM VA UNING AHAMIYATI.

Fan: Turizm va uni o'qitish uslubikyati.

O'quv soati: 2 soat ( ma'ruza).

O'quv mashg'ulotlari turi: ma'ruza; yangi mashg'ulotlarni mustahkamlash va o'rganish.

REJA:

1. Xalqaro turizm va uning rivojlanish tarixi.
2. Xalqaro turizm tashkiloti va uning tuzilishi.
3. Xalqaro iqtisodiy turizm.
4. Xalqaro turizmda geografiya.

**Fanning nazariy (ma'ruza) mashg'ulotlari mazmuni va maqsadi.**

Turizm turlari tarixi, rivojlanish bosqichlari
va pyedagogik ahamiyati

O`zbyekistonda turizmning rivojlanish tarixi. Rivojlanish bosqichlari.
Turizmni rivojlantirishga oid diryektiv hujjatlar.
Mashhur turistik marshrutlar.

Turizm turlarini bolaning yoshiga mos holda tanlash va o`tkazish

Turizm turlari: umumta'lim maktabi, o`rta maxsus kasb – hunar ta'lim muassasalari o`quvchilari, talabalari bilan turistik sayohatlarni ryejalashtirish va tashkil qilishning o`ziga xos xususiyatlari. Har bir sayrning rivojlanish bosqichlari va tarbiyaviy ahamiyati.

Turizm turlarini bolaning yoshiga mos holda tanlash va o`tkazish. O`quvchi va talabalarning yosh xususiyatlarini va jinsini hisobga olgan holda kichik, o`rta va katta mye'yordagi harakatlar, jismoniy mashqlarga taalluqli elyemyentlar mazmuni, tavsifi, tahlili.

**O'qitish texnalogiyasi:**

- O'qitish usullari: ma'ruza, instruktash, aqliy hujum.
- O'qitish shakllari: frontal, jamoaviy.
- O'qitish vositalari: ma'ruza matni, turizm jihozlar, jadvallar.
- O'qitish sharoitlari: auditoriya.
- Baholash va monitoring: og'zaki savol- javob, so'rov.

**Pedagogik masalalar:**

- Fanning masalalariva uning o'quv fanlar sistemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish ;
- O'quv faning tuzulmasi va tavsiya etilgan o'quv-metodik adabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasidagi metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma'ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini harakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish;
- O'qitish texnalaogiyasini prerspektivasini harakterlab berish;

**O'quv faoliyati natijalari:**

- Fan ma'ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakllanadi;
- Fan sohasida metodik va tshkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi;
- Fan ma'ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishniong umumiy sxemasini kengaytirib harakterlab beradi;
- Fanning asosiy tariflarini beradi;
- Nazariy bilimlarni to'liqligi, sistemaleligi va harakterliligini ochib beradi;
- Amaliy mashg'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralar bilan ishlay oladi.

## MA'RUZA MASHG'ULOTLARI UCHUN XRONOLOGIK KARTA

**1-etap. O'quv mashg'ulotiga kirish (15 daqiqa)**

a*) o'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (konspektni mavjudligi, ishonchililik va aniqlik , davomat); kerakli materiallarni tarqatish ( konspekt mavjudligi, tarqatma materialar); ma'ruza mavzusi va maqsadini aytish; o'quv mashg'ulotini rejasi; tayanch iboralar hamda adabiyotlar ruyxati bilan tanishtirish. Reyting nazorat tizimi va utkaziladigan J.B.,OB lar mezonlari bilan tanishtirish.

B*) talaba faoliyati*; o'quv joyini tayyorlash ( talabalar soni, tashqi kurinishi, o'quv materiallari, va jihozlar), ma'ruza mavzusi va maqsadi bilan tanishish, o'quv materiallarini qabul qilishga tayyorlanish.

B) *O'tkaziladigan metodlar, shakllar,usullar*; instruktaj, frontal surov, topshiriqlar, mustaqil topshiriqlar, tarqatma kartochkalar.

**2-etap. Asosiy qism ( 55 daqiqa)**

A) *O'qituvchining faoliyati*; mavzuga kirish, ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan oldingi mavzularni yodga olish, ma'ruza matnini tarqatish va mavzu bilan tanishishni tavsiya etish hamda belgilash, birinchi reja buyicha ma'ruza o'qish, diktovat qilish va qo'shimcha materiallarga tushuncha berish, slayidlarni namoiyish etish va tushuntirish, tushunmagan savollarga aniqlik kiritish va javob berish. ( barcha savolnomalar xudi shunday tashkil etilishi lozim).

B*) talaba faoliyati*; yangi mavzu bilan bog'liq bo'lgan oldingi mavzular bo'yicha bilimni mustaxkamlash, ma'ruzani diqqat bilan eshitish va yozib borish, har bir tayanch iboralarni aytish va yozib borish, savollar berish, muxokama etish.

B) *metodlar, shakllar, usullar*; frontal surov, alohida, blis- surov.

**3-etap. Xulosa. (10 daqiqa).**

A) *O'qituvchi faoliyati*; mavzu buyicha xulosa qilish, talabalar diqqatini mavzuga jalb etish, bajarilgan ishning muhimligini isbotlab berish, alohida talabalarni baholash,va rahbatlantirish, mavzuni maqsadga erishganligini tahlil etish, mustaqil ish uchun topshiriqlar berish.

B*) talaba faoliyati*; mavzuni tahlil etish, olingan tajriba va kunikma, texnologik bilimlarni mustaqil qo'llay bilish, o'z-o'zini baholay bilish, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlay bili shva tahlil etish, mustaqil topshiriqlarni bajarish.

B*) metodlar*, *shakllar, usullar*. Guruhlarda o'zaro ishlash, topshiriq kartochkalarni tahlil etish va x.z.

# 3 – MA'RUZA MATNI.

## XALQARO TURIZM VA UNING AHAMIYATI.

Xalqaro turizm xalqlar o'rtasidagi aloqaki kuchaytiruvchi vositalardan eng muhimi xisoblanadi. Xalqaro turizm xalqlar o'rtasidagi do'stlikni, bir-biriii tushuiishni va madaniyatni bilishni o'rgatadigan faidir.

Yuqori saviyada rivojlangan transport vositalarishig o'sishi natijasida sayohatchilarnikg u, bu mamlakatga borishi kuchaydi.

1950 yilda sobiq ittifoqqa 25 mln. sayohatchilar kelishgan bo'loa, 1960 yilda 10% ga yanada oshdi. Bu ko'rsatkichlar yildan yklga oshganligi xalqlar o'rtasidagi aloqaning kuchayib borayotganligidan dalolatdir.

Xalqaro turizm xalq xo'jaliginiig juda ko'p tarmoqlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan: aloqa tizimini yo'lga ko'yishga transport vositalariga, kommunal xizmat ko'rsatish ndoralariga, oziq-ovqat sanoatiga. Xalqaro gurizmda - sayoqatlar xalkdarning ishlab chiqargan tovarlarini, ^narlarini jaqon xalq bozoriga olib chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Sayyoxdar tomonidan tushadigan pullar, ya'ni yotish,. ovqatlanish va boshqa xizmat turlari kabi daromadlar qarakatsiz qolmaydi. Bu tushgan mablag'lar shu

xalqnint iqtisodiga o'z ta'sirini ko'rsatib, iqtisodiy o'sishiga olib keladi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra 1965 yilda jaqon turizmida chet va ichki sayyohdarning tushgan mablag'lari 44 mln ni tashkil etdi, shundan 13-14 mln dollar paseajir transportiga sarf bo'lgan, 5,6% boshqa zxti.yojlar uchum " ishlatilgan. Krlgan summa esa shu , davlatning kapitaliga aylanib qolavergan. Shuning uchun keyingi vaqtda turizmning hamma sohalarini rivojlantirish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun quyidagilarni sayyohdarni jalb qilmoq kerak:

1. Yuqori malakaga ega bo'lgan ishchilar.
2. Yuqori darajada xizmat ko'rsatish idoralari.
3. Mamlakatning tabiiy boyliklaridanunumli.foydalanish.
4. Xalq madaniy san'atidan unumli foydalanish

Shunisi diqqatga sazovorki, kishilarni madaniy tarbiyalashda xalqaro turizmning ahamiyati katta. Sayyohlar shu xalqning tarixi, tabiati va madaniyatini bilish va o'rganishga harakat qiladilar. Bu esa xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng turizmni rivojlantirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirdi:

1. O'zbekturizm milliy kompaniyasining tashkil topipsh-1992 yil.
2. Har bir viloyat va tumanlarda turistik idoralarning tashkil etilishi.
3. Chet eldan keladigan sayyohlarga jaxrn andozasiga mos holatda xizmat ko'rsatilishi.
4. Sayyohlardan tushgan mablag'larni turizmni rivojlantirish borasida qo'llanishi kabi ishlar.

Shuni alohida ko'rsatib o'tishimiz kerakki, bizning diyorimizda sayyohlarni jalb qiladigan tarixiy madaniy o'tmishimiz, buyuk allomalarimkz va ular tomonidan qurdirilgan tarixiy madaniy obidalarimiz, tabiiy yer osti va yer usti boyliklari mavjud. Shuning uchun davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng sayyohlarning bizning o'lkaga qiziqishi kuchayib, yildan yilga ularning o'sish darajasi ortib bormoqda.

Turistik firma, turistik agentlik kapitalizm davri bilan hamohang ravishda vujudga kela boshladi. Turistik firma sayyohlarii joylashtiradi (yotoqxoka, ovqatlanish) va tovarini harakatga keltiradi. Bunda firma bugun xarajatlarni o'z bo'yniga olib ish xarakatining o'sishiga olib keladi.

Birinchi bo'lib, angliya fuqarosi Tomas Kuk turistik agentlik faoliyatini boshlaydi. 1841 yilda imtiyozli ravishda 600 ta temiryo'l biletini sotib olib, sayyohlarga agecht ustamasini olib pullaydi. Shundan so'ng Tomas Kuk bir guruh angliya sayyohlarini o'z qit'asiga olib boruvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi. 1867 yilda Tomas Kuk firmasi orqali 20 ming angliyaliklar Fransiyadagi "Parij vistavka"siga sayyoh bo'lib boradi. 1878 yilda 75 ming sayyoh uning firmasi orqali o'zga yurtlarga chiqishga muvaffaq bo'ladi.

Rossiyada birinchi turistik firmalarda Leopoldo Lijona tashkiloti bo'lib, Peterburg shahrida-1885 yilda tashkil topgan. Ochilish vaqtida firma tomonidan quyidagi ovozlar tarqatilgan. Tashkilot uncha ko'p bo'lmagan mablag'ingiz bilan sizga yaxshi dam olishingizga kafolat beradi. Shu vaqtda temir yo'l aloqa pochta vositalari bo'lmaganligi uchuk, tashkilot tomonidan yo'l ko'rsatuvchi, tarjimon, oshpazlar,

xizmatkorlar, palatkalar va kerakli jixozlar olinar edi.-Tashkilot boradigan manzilni butun tarixi bilan tanishtirishni o’z zimmasiga oladi.. Sanoatning rivojlanishi hamda kishilarning sog’lom turmush faoliyati yaxshilanib borgan sari sayyohlar va kema tashkilotlari ko’paya boshladi.

XX asrning o’rtalarida Shimoliy Amerika qit’asida 6,5 mingga yaqin turistik firmalar, shundan 10 minggi kichik turistik firmalar qayd etilgan. Angliyada 2 ming atrofida, FRG da 1 mingga yakdn, Italiyada ham mingga yaqin, Fransiyada 700 ga yaqin turistik firmalar faoliyat ko’rsatgan.

Shuni alohida qayd etkshimiz zarurki, ko’p mamlakatlarda turistik faoliyat davlat tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Masalan: Polshada "Orbis", Chexoslavakiya- "Chedok", Vengriyada "Ibus", Bolgariyada "Bolkan turist", Yugoslaviya davlatida "Kosmos, putnik" kabi davlat tashkilotlari boshqaradi.

Turistik tashkilotlarining birlashuvi

Keyingi paytda kuzatuv natijalari shuni ko’rsatadiki, turistik firmalarning ko’payganligi bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Shuning uchun turizm oldida umumiylashtirish vaziyati paydo bo’la boshlaydi.

Angliya davlatidagi firmalarni birlashuvini nomlanishi. "ABTA" (Assosiasiya Britanskix Turisticheskix Agentov) Britaniyalik turistik agentlik birlashmasi, Fransiyada "YuSAV", Italiyada turizm bo’yicha italiya birlashmasi "FIVVET", Yaponiyada "DJATA".

Ayrim mamlakatlarning turistik birlashuvi mintaqaviy xolatda yuz berayapti.

XIX asrning oxirlarida Yevropa ziyolilarining hisob kitobiga ko’ra, sayyoxdardan tushadigan mablag’lar shu davlatning iqtisodiy o’sishiga katta ta’sirini o’rganib, xalqaro turizmni ya’ni sayyohlarni o’z yurtiga jalb qilish choralarini ko’ra boshladi. 1929-1933 yillardagi iqtisodiy krizisga duchor bo’lgan mamlakatlar turi.zm orqali bu krizisdan chiqish yo’llarini axtara boshlashdi. Shuning natijasida o’z mamlakatidan sayyohlarni chetga chiqishiii bir muncha qisqartirib, o’zga davlatlardan sayyohdarni jalb qilish yo’llarini axtara boshlashdi.

Jahrn urushidan jarohat ko’rgan mamlakatlar o’z iqtisodini tiklash chorasini qidira boshlashdi. Mana shu davrda burjua olimlari ko’proq chet el sayyohdarini jalb qilish uchun o’zlaridagi tarixiy, qo’yinki, butun sayyohdarni jalb qiladigan imorato’-madnaniy boyliklarni jahon andozasiga mos ravishda tiklay boshladi.

Xalqaro turizm ko’rinmas maxsulot sifatida.

Xalqaro jaxrn bozorida turizm ko’zga ko’rinmas mahsulot sifatchda o’z mavqyeini egallay boshladi. Sag’yohlar bilai birgalikda davlatlar o’zlarining xom-ashyolarini, ishlab chiqargan tovarlarini chiqara boshladi. Bu esa jahon xalqlarining iqtisodiy o’sishiga olib kela boshladi. Chetdan kelgan sayyoxlar xalq xo’jaligining juda ko’p tarmoqlariga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Ular xalq xo’jaligida ishlab chiqargan mahsulotlarni sotib oladi. Bu mahsulotlarni chet el valyutasi orqali sotib olishi va shu valyutani almashtirish natijasida keltiradi.

Shvesariya davlatidagi turizm birlashma ziyolilarining o’tkazgan tadqiqot natkjalariga ko’ra (1965 yil) chetdan kelgan sayohlarning ovqatlanish uchui sarf bo’lgan mahsulotlar kuyidagicha: 1. 3668 tonna go’sht, 1284 tonna moy, 367 tonna saryog’, 18 million dona tuxum, 5500 tonna non, 7336 litr sut, 3500 tonna meva, 5500 tonna poliz mahsuloti. Agar mana shu mahsulotlar chet davlatlarga eksport

qshshnganda, Shvesariya davlati 6 million dollar hdsobida foyda olardi. Sayohlar hisobiga esa 20 million dollar foyda olingan. Bu natijadan ko'rinib turibdiki, o'zga sayohlarni mamalkatlarga jalb qilish shu davlatning iqtisodiy o'sishini tezlashtiradi.

Geografiya - xalqaro turizmning iqtisodiy va ijtimoiy rivojida muhim omillardan hisoblanadi.

Xalqaro turistik patoklardan muammoviy vaziyatlar sodir bo'layapti. Bunga masalan, xalqaro turistik tashkilotlar va transport uyushmalari o'rtasidagi ziddiyatlar yoki kurashuvlar. Bu kurashuvning asl mohiyati o'z davlatiga chet el valyutasini kirgizish va shu valyuta orqali xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarini rivojlantirishdan hamda sayohlarga zamonaviy ta'minotda xizmat ko'rsatishga erishish nazarda tutiladi. Shuning uchun xalqaro turizm. jahon bozoridagi kurashuvda sayohlar uchun quyidagi imtiyezlar beradi va reklama qiladi: a) bojxonalardan sayohlarni o'tkazishni yengillashtirish; b.) transport vositalaridan foydalanish qulayliklari; . v) mavsumiysiz tashrif buyurgan uchun imtiyozlar.

Xalqaro "turizmda geografik turizmi muhim hisoblanadi. Bu butun davlatlarning yerlaridagi geografik muhyatni yaxshilash, turizmga xos geografik joylarni topish va ulardan okdlona foydalanishda ko'rinadi. Bunda turizm turlariga qarab, regionlarga ajratib planli ravishda muammolar hal etilsa, maqsadga muvofiq bo'dadi va shu mintaqada turizm o'sishi. rivoji ta'minlanadi.

Ichki va tashqi turizm bir-biriga shunchalik aloqadorki, tashqi turizm mana shu mintaqaga iqtisodiy yordam berib, shu mintaqaning texnika bazasini rivojlantiradi. Bu holat ichkk turizmni rivojlantirishga olib keladi.

Geografik tadqiqot xalqaro turizmda shuni ko'rsatadiki, bunda xalqtarixiningo'sishini, madaniyatini aniqlash mumkin.

Xalqaro turizmda Fransiya eng yuqorn mamlakat hisoblanib, geografik joylashuvi, ob - havosi va tabiatning o'ziga xosligi, yo'l inshootlarining juda tekis go'zalligi va turar joylarining ajoyibligi bilan butun dunyoda sayoqlar davlatiga aylandi.

Turistik rivojlanish: Italiya, Shvesariya, Avstriya davlatlarida xudsi Fransiya davlatidagidek tarqala boshladi. Shkmoliy Amerikada XIX asrning oxiri XX asr boshlarida turistik harakat AQSh va Kanada davlatlarida kuchaydi. V Xalqaro turizmda geografik joylashuvi jiqatidan Yevropa mamlakatlarida rivojlanish tez o'sa boshladi. Yevropa axrlisining qar bir jon kishining 8 tadan bittasi dam olish maqsadida yoki ishlar bilan turistik qarakatda bo'ladi.

## Nazorat savollari.

1. Xalqaro turizm haqida tushunchalar.
2. Xalqaro turizmni rivojlantirish yo'llari.
3. O'zbekmilliy turizm kompaniyasining tashkil topishi.
4. Xalqaro turistik tashkilotlarning birlashuvi haqida tushuncha.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Abdumalikov, T.Xoldorov "Turizm" Toshkent "O'qituvchi" 1988 yil

2. M.A.Ananyev "Mejdunarodniy turizm" Moskva 1968 g.
3. O’zbekiston ensiklopediyasi.

# 4 – MA’RUZA.

## TURIZM TURLARINING TASNIFI.

Fan: Turizm va uni o’qitish uslubikyati.

O’quv soati: 2 soat ( ma’ruza).

O’quv mashg’ulotlari turi: ma’ruza; yangi mashg’ulotlarni mustahkamlash va o’rganish.

REJA:

1. Sayr qilish turlari.
2. Turizmni aholi orasida agetasiya va propaganda qilish yo’llari.
3. Aholi o’rtasida havaskorlik sayohatlarini tuzish.

